



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ SIYOSATIDAN SAMARALI FOYDALANISH

**Xaydarov Alisher Akram o'g'li**

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*

ORCID: 0009-0002-0249-6460

[xaydarovalisher10@gmail.com](mailto:xaydarovalisher10@gmail.com)

**Azimov Allaberdi O'rinovich**

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*

ORCID: 0009-0008-2684-7492

[allaberdiAzimov0@gmail.com](mailto:allaberdiAzimov0@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda jismoniy shaxslardan olinadigan yer va mol-mulk soliqlarining ahamiyati hamda yangi joriy etilgan mahalla budjeti mexanizmining amaliyotga tatbiq etilishi bilan bog'liq jarayonlar yoritilgan. Shuningdek, mahallalar o'rtasida iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, aholining ijtimoiy hamda hududlarning infrastruktura bilan bog'liq muammolarni hal etish bo'yicha muhim ahamiyat kasb etishi kutilayotgan mahalla budjeti daromadlarini soliqlar vositasida oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mahalla, mahalla budjeti, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari, soliq siyosati

## ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ МАХАЛЛЕЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

**Хайдаров Алишер Акрам угли**

*Университет экономики и педагогики*

**Азимов Аллаберди Уринович**

*Университет экономики и педагогики*

**Аннотация.** В данной статье освещается значение налогов на землю и имущество, взимаемых с физических лиц, в социально-экономическом развитии махаллей в Республике Узбекистан, а также процессы, связанные с внедрением в практику нового механизма бюджета махаллей. Кроме того, разработаны рекомендации по увеличению доходов бюджета махаллей за счет налогов, что ожидается как важный шаг в снижении экономического неравенства между махаллями, а также в решении социальных проблем населения и вопросов, связанных с инфраструктурой регионов.

**Ключевые слова:** махалля, бюджет махаллей, налоги на имущество и землю с физических лиц, налоговая политика.

## EFFECTIVE USE OF TAX POLICY IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF MAHALLAS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Khaydarov Alisher Akram ugli**

*University of economics and pedagogy*

**Azimov Allaberdi Urinovich**

*University of economics and pedagogy*

**Annotation.** *This article highlights the significance of land and property taxes levied on individuals in the socio-economic development of mahallas in the Republic of Uzbekistan, as well as the processes related to the implementation of the newly introduced mahalla budget mechanism in practice. Additionally, recommendations have been developed for increasing the revenues of mahalla budgets through taxation, which are expected to play an important role in reducing economic inequality between mahallas, addressing social issues of the population, and solving problems related to regional infrastructure.*

**Keywords:** *mahalla, mahalla budget, property and land taxes levied on individuals, tax policy.*

### **Kirish.**

Soliq siyosati davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning bilvosita usuli hisoblanib, hududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishga muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi asosida soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq yukini keskin pasaytirish, soliqqa tortiladigan obyektlarni to'liq qamrab olish va soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish orqali tegishli budjetlar daromad bazalarini mustahkamlash, mahalliy soliq va yig'implarning soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun mahalliy budjetlarning markaz budjetiga qaramligini keskin kamaytirish, budjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish va mahalliy budjetlar mablag'larini samarali boshqarishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishlarini ta'minlash muhim omil hisoblanadi. Mahalliy davlat hokimiyati idoralari o'zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni lozim darajada bajarishlari uchun budjet daromadlaridan iborat barqaror moliyaviy iqtisodiy asosga ega bo'lmog'i lozim (Farmon, 2022).

"2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" da mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi (Farmon, 2022). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan hayotga tatbiq etilgan "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan tamoyil davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib barcha darajadagi rahbarlar uchun asosiy qoida sifatida belgilandi. Barcha davlat organlari fuqarolarning murojaatlarini mahallaning o'zida bartaraf etish choralari ko'rgan holda "mahallabay" ish tashkil etishlari lozimligi belgilab berildi. Bu esa o'z navbatida mahalliy budjetlarning mustaqilligini yanada oshirish va daromad bazasini mustahkamlash, qo'shimcha daromad manbalarini aniqlash, shuningdek, ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha manbalarni jalb etish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rishni taqozo etadi.

Mahalliy budjetlar mahalliy hokimliklarni o'z vazifalarini amalga oshirishda moliyaviy dastak hisoblanib, ularning moliyaviy mustaqilligi ushbu hududlarni rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimiz rahbari 2022 yilning yakuni bo'yicha Oliy Majlisga Murojaatnomasida hududlarni muammolarini bartaraf etishda mahallalarning moliyaviy mustaqilligini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratib, mahalla budjeti tizimi joriy etilishini ta'kidlab o'tdilar (Murojaatnoma, 2022).

Mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va yer solig'ini yig'ish ko'rsatkichlarini oshirish orqali yangi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha mablag'larni jalb qilish maqsadida mahallabay ishlash tizimi natijasida soliq inspektorlarining mahallalarga biriktirilishi mol-mulk va yer soliqlarining undiruvchanlik darajasini oshirib, mahallaning ixtiyorida qoladigan tushumlarning o'sishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Mahallaning o'z budjetiga ega bo'lishi esa hududdagi ijtimoiy-muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Mamlakatimiz hududlarini soliq siyosati orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha bir qancha qaror va farmonlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-son qaroriga ko'ra hududlar o'rtasida iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, tuman va shaharlarni ularning sharoiti, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlantirish maqsadida respublika tuman va shaharlari 5 toifaga ajratilgan hamda 4-5-toifaga kirgan hududlarga bir qancha soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyati berilgan (Farmon, 2022).

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 26 dekabrda "Mahalla budjeti tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-458-son qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra 2023 yilning 1 yanvaridan boshlab undiruvchanlik darajasi past bo'lgan 14 ta tumandagi mahallalarda eksperiment sifatida, 2024 yil 1 yanvardan boshlab esa respublika bo'yicha barcha 9443 ta mahallada mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha undirilgan mablag'larning 10 foizi hisobot oyidan keying oyning 10-sanasiga qadar tuman budjetlari orqali mahalla jamg'armasiga yo'naltirilishi belgilangan (Qaror, 2022).

Shuningdek ushbu mavzu yuzasidan turli mahalliy olim va tadqiqotchilarimiz tomonidan o'rganilgan bo'lib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, Toshmatov (2017) tomonidan hududiy soliq salohiyatini baholash va mahalliy soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish zarurligi, Usmonov (2014) tomonidan budjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni, tartibi, ishtirokchilar vazifalarini aniq ko'rsatib beruvchi huquqiy hujjat qabul qilish lozimligi, A.X.Islamqulov esa markaziy va mahalliy davlat hokimiyatlarining moliya-budjet, budjet-soliq sohalarida vakolatlarini aniq belgilab olish lozimligini ta'kidlab o'tgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**


Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil usulidan foydalanib, mahalla budjeti tizimiga jismoniy shaxslardan olinadigan yer va mol-mulk soliqlarining ulushini oshirish va bu orqali mahallalar infratuzilmasini, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga doir tahlillar amalga oshirildi hamda ilmiy xulosalar berildi.

Maqoladagi tahliliy ma'lumotlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, Qashqadaryo viloyati hokimligi ochiq ma'lumotlaridan, shuningdek mavzu doirasida normativ huquqiy hujjatlardan, tadqiqotchi olimlarning ilmiy ishlaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

2024 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlaridan tushgan tushumlarning 10 foizini mahalla budjeti tizimi asosida respublikamizdagi jami 208 ta tuman va shahardagi 9443 ta mahallalarning budjetiga qaytarish amaliyoti joriy etildi.

2024 yil 19 holatiga real vaqt rejimidagi ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, "Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish" jamg'armasiga jami 297,5 mlrd so'mlik tushumlar amalga oshirilgan bo'lib, belgilangan yillik prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 68% ni tashkil etadi (1-rasm).



**1-rasm. Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasi tushumlari manbaalari.**

**Manba:** [www.openbudget.uz](http://www.openbudget.uz)

Shundan:

- 257,2 mlrd so'mi – mol-mulk va yer soliqlari bo'yich undirilgan mablag'lar;
- 25,3 mlrd so'mi – Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar hamda Toshkent shahar, shuningdek tumanlar (shaharlar) mahalliy budjeti qo'shimcha mablag'lari hisobidan;
- 0,8 mlrd so'mi homiyluk mablag'lari;
- 9,8 mlrd so'mi boshqalar.

Umuman olganda mol-mulk va yer soliqlari tushumlari jamg'armaning asosiy daromad manbasi hisoblanib, 86% dan ortiq tushumlarni ta'minlagan.

Respublikadagi 9443 ta mahalla tomonidan mahalla jamg'armasi mablag'lari orqali 111,8 mlrd so'mlik xarajatlar amalga oshirilgan bo'lib, jamg'armada 185,7 mlrd.so'mlik qoldiq yoki boshqacha aytganda jami tushumga nisbatan atigi 32 foiz mablag'lardan mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda foydalanilgan xolos. Jamg'arma mablag'laridan foydalanish darajasi bo'yicha Samarqand viloyati va Toshkent shaharlarida eng past ko'rsatkich qayd etilgan. (1-jadval).

**1-jadval**

**Respublika bo'yicha mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasi tushumlari**

(19.10.2024 yil holatiga mlrd.so'mda)

	Hudud Nomi	MFY soni	Mahalla jamg'armasi			Yer solig'i to'lovchilar soni	Mulk solig'i to'lovchi soni
			Jami tushum	Jami Xarajat	Qoldiq		
<b>Jami</b>		<b>9443</b>	<b>297,5</b>	<b>111,8</b>	<b>185,7</b>	<b>6 031 279</b>	<b>7 188 924</b>
1	QQR	452	21,5	7,6	13,9	372 334	396 567
2	Andijon	909	15,4	6,5	8,9	583 051	632 419
3	Buxoro	544	21,4	5,9	15,5	392 185	444 267
4	Jizzax	309	12,0	6,0	6,0	234 426	266 079
5	Qashqadaryo	819	25,6	5,7	19,9	655 910	675 265
6	Navoiy	330	13,2	8,6	4,6	174 404	249 790
7	Namangan	788	16,4	6,1	10,3	486 889	531 472
8	Samarqand	1 126	38,1	9,1	29,0	685 572	747 316
9	Surxondaryo	724	36,7	26,7	10,0	482 617	486 922
10	Sirdaryo	239	4,7	2,0	2,7	143 590	166 483
11	Toshkent v	1025	26,8	9,7	17,1	541 313	669 270
12	Farg'ona	1062	23,5	9,3	14,2	654 385	748 881
13	Xorazm	531	15,9	7,8	8,1	368 160	394 236
14	Toshkent sh	585	25,9	0,7	25,2	256 443	779 957

**Manba:** [www.openbudget.uz](http://www.openbudget.uz)

Mantiqan olib qaralganda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari tushumlari bo'yicha davlat budjetida, shu jumladan mahalla jamg'armasida katta yo'qotishlar mavjud. Soliq qo'mitasi ma'lumotlariga asosan Respublika bo'yicha jami 6 031 279 ta yer solig'i to'lovchisi hamda 7 188 924 ta mol-mulk solig'i to'lovchilari mavjud. Soliq kodeksiga asosan yer solig'i bazasi foydalanilayotgan yerning hajmi, mol-mulk solig'i bazasi esa ko'chmas mulkning kadastr qiymati hisoblanadi.

Soliq kodeksining (2020) 420-moddasiga ko'ra soliq solish maqsadiga ko'ra ko'chmas mulk qiymati 42 million so'mdan kam bo'lishi mumkin emas. Mol-mulk solig'ining soliq bazasini kadastr qiymatiga bog'liqligi ushbu soliq bo'yicha katta tushumlarning yo'qotilishiga sabab bo'lmoqda. Buning sababi respublikadagi aksariyat ko'chmas mulk obyektlarining kadastr qiymati yuqorida keltirib o'tilgan shartli miqdor atrofida (42 000 000 so'm) hisoblaganligi hamda ko'chmas mulkning haqiqiy bozor bahosidan keskin farq qilishini ko'rsatib o'tish mumkin. Shuningdek, kadastr hujjatlarining ham o'z vaqtida yangilanmasligi eski davrda baholangan qiymatning yillar davomida o'sha obyekt uchun kadastr qiymati sidatida qaralishiga hamda soliqlarning kam hisoblanishiga sabab bo'lmoqda.

2-jadval

**Qarshi shahrida mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish  
jamg'armasi daromad va xarajatlari  
(19.10.2024 yil holatiga mln.so'mda)**

No	MFY nomi	Jami tushum	Jami xarajat	Qoldiq
<b>Qarshi shahri bo'yicha jami</b>		<b>2 233,9</b>	<b>305,6</b>	<b>1 928,3</b>
1	Otchopar MFY	147,6	4,7	142,9
2	Aralovul MFY	111,8	4,7	107,1
3	Arabxona MFY	84,0	4,7	79,3
...	.....	.....	.....	.....
62	Maxsimobod MFY	11,2	4,7	6,5
63	Amir Temur MFY	10,5	4,7	5,8
64	Eski anhor MFY	10,4	4,7	5,7

*Manba:* [www.openbudget.uz](http://www.openbudget.uz)

Mahalla jamg'armasi tushumlari bo'yicha ma'lumotlarni Qarshi shahrining 2024 yil 19 oktabr holatiga tushum miqdori eng yuqori va eng past mahallalari kesimida tanlanma usulda tahlil qiladigan bo'lsak, mahallalarning iqtisodiy holatida keskin tengsizlik holati mavjudligiga guvoh bo'lishimiz mumkin (2-jadval). Xususan, Otchopar MFY jamg'armasiga 147,6 mln.so'm mablag'lar yo'naltirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich shaharning Eski anhor mahallasida 10,4 mln.so'mni tashkil etadi yoxud Otchopar mahallasidan qariyb 14 baravar kam. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, ushbu amaliyot davom etadigan bo'lsa hududidagi soliq solish obyektlari soni ko'proq va soliq bazasi yuqoriroq bo'lgan mahallalarning jamg'armasiga tushumlar miqdori yuqoriligicha qolaveradi va aksincha.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021 yil Samarqanda shahridagi "Sharq tongi" mahallasiga tashrifi mobaynida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: "Oxirgi yillardagi harakatlarimiz tufayli hokimliklarda mahalliy budjet paydo bo'ldi. Bu yo'q edi. Endi mahallalarda budjet tashkil qilishni rejalashtirganmiz. Tasavvur qilinglar, o'zining puli bo'lsa, mahalla qanday o'zagaradi - yo'lini to'g'rilaydi, suv olib keladi, shoxobcha ochadi. Kelgusida mahallaga pul ham kiradi, talab ham boshqacha bo'ladi".

Prezident talabiga ko'ra mahalla budjeti tizimini tashkil qilishdan maqsad mahallalarga ma'lum bir miqdorda moliyaviy mustaqillik ta'minlashdan iborat edi. Mahalla hududida yig'ilgan mahalliy soliqlarda ma'lum bir qismini mahallada qoldirish orqali mahalla fuqarolar yig'inlariga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni mustaqil o'z ixtiyorida qolgan mablag'lar evaziga hal qilish vakolatini berish asosiy ko'zlangan maqsad edi.



Vaholanki, 2-jadval ma'lumotlariga asoslanib gapiradigan bo'lsak mahallalar ixtiyorida qoladigan summalar miqdori juda ham past hamda bu mablag'lar bilan mahallalarni iqtisodiy mustaqilligini ta'minlab bo'lmaydi. Misol uchun Qashqadaryo viloyati hokimligi ma'lumotlariga asosan Qarshi shahrining Maxsimobod mahallasida 537 ta xonadan va 2107 ta aholi, Amir Temur mahallasida 1136 ta xonadan va 4213 ta aholi, Eski anhor mahallasida esa 409 ta xonadan va 1484 ta aholi mavjud. Ushbu mahallalarga yil boshidan beri mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasiga 10-11 mln.so'm atrofida daromad tushgan. Tabiiyki, bu miqdordagi mablag'lar yuqoridagi mahallalar hududidagi xonadan va aholi muammolarini qamrab olish uchun nihoyatda kam.

Boshqa tomondan qaraganda bugungi kunda mahallalarga turli xil manbalardan moliyaviy yordam ko'rsatiladi. Bunga "Tashabbusli budjet", "Mening yo'lim", "Obod qishloq", "Obod mahalla" loyihalari, davlat investitsiya dasturlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Lekin mahalladagi infratuzilma obyektlarining qurilish yoki rekonstruksiyasi dasturlari ro'yxatiga kiritilishi kafolatlanmagan. Boshqacha aytganda, "Tashabbusli budjet", "Mening yo'lim" kabi dasturlarda fuqarolar faollik ko'rsatib, qolganlardan ko'ra ko'proq ovoz to'plashlari talab etiladi. G'olib bo'linmagan taqdirda mahalla hududida yig'ilib qolgan muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish jarayonini kechiktiradi. Agar mahallalar ixtiyorida yetarlicha mablag' qoladigan bo'lsa, mahalla fuqarolar yig'ini kengashlari qarori bilan ularni bartaraf etish imkoniyati mavjud bo'ladi. To'layotgan soliqlari o'z hududini rivojlantirilishiga sarf etilayotganini his qilgandan so'ng, aholiga mol-mulk va yer soliqlarini ixtiyoriy ravishda belgilangan muddatlarda to'lashga turtki bo'lishi mumkin.

### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, mahalla budjeti tizimini mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda ushbu tizim butun mamlakatimiz bo'ylab amal qilmoqda. Lekin uni amaliyotga tatbiq etish bilan bog'liq muammolar ham talaygina. Shu munosabat maqolada keltirilib o'tilgan tahliliy ma'lumotlarga asoslanib mahalla budjeti tizimi bo'yicha quyidagi takliflarni o'rinli deb hisoblaymiz:

1. Mahallada mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha undirilgan mablag'larning mahalla jamg'armasiga yo'naltiriladigan ulushini 10 foizdan 25 foizga oshirish;
2. Mol-mulk solig'i bazasi hisoblangan ko'chmas mulkning kadastr qiymatini bozor narxi tamoyillari asosida hisoblashga o'tish;
3. Mahallalar o'rtasida iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish maqsadida mahalliy kengashlar qarori asosida oshiruvchi yoki kamaytiruvchi koeffitsientlarni qo'llash orqali tuman va shaharlar mahalliy budjetidan mahallalar budjetlariga transfertlarni amalga oshirish.

Bizning fikrimizcha yuqoridagi takliflar amaliyotga tatbiq etiladigan etiladigan bo'lsa tizimning samaraliroq ishlashiga sabab bo'lishi mumkin.

### **Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:**

Farmon (2022). *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"PF-60-son Farmoni.*

Farmon (2022). *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-son qarori.*

Kodeks (2020). *O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2020 y.*

Murojaatnoma (2022). *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.*

*Qaror (2022). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 26 dekabrda "Mahalla budjeti tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-458-son qarori.*

*Toshmatov Sh.A.(2017). Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda davlat budjeti daromadlari manbalarini kengaytirish yo'nalishlari // O'zbekistonda moliya sektorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. T.: TDIU, 2017. -b.27-28.*

*Usmonov Q.A. (2014). Budget daromadlarini rejalashtirish jarayoni, usullari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. No 4, 2014 yil, iyul-avgust.*